
Eski ko'prik o'rnida yangisi barpo etilmoqda buning uchun 2.5 mlrd. so'm mablag' ajratildi

???? "Jahonobod" mahalla fuqarolar yig'inida shu kungacha ko'p yillik bir muammo va tashvishlari mavjud edi. Bu ham bo'lsa qishloqdagi eski, yaroqsiz holga kelib qolgan ko'prik masalasi bo'lgan.

* Mahalla ahli shu yilning aprel oyida ushbu muammo yuzasidan tuman hokimi qabulida bo'lib, mavjud vaziyatni tushuntirishdi. Holatni o'rganib, masalani ijobiy yechishda ko'mak so'rashdi. Ko'p o'tmay, tuman rahbari murojaat asosida tegishli mutasaddilar bilan qishloqqa tashrif buyurib, ko'prikning holatini ko'zdan kechirdi.

□ Ushbu murojaatni ijobiy hal etish maqsadida berilgan ko'rsatma-topshiriq va ko'rilgan zaruriy chora-tadbirlar natijasida eski ko'prikni butkul buzib tashlab, o'rniga yangi, keng va mustahkamini qurish ishlari belgilanib, amaliy ishlar boshlanib ketdi.

✳️ Ayni kunlarda "Jahonobod" va "Suxobod" qishloklari aholisini tuman markazi bilan bog'lab turuvchi yulida Katta Farg'ona kanali ustiga qiymati 2.5 mlrd. so'm bo'lgan ko'prik barpo etilmoqda.

???? - Mana, keng va mustahkam ko'prikka ega bo'lyapmiz. Qishlog'imizning yoshu-qarisi shu birgina yangi ko'prik misolida bugun yurtimizdagi barcha islohotlar inson qadri uchun ekanligini his qilib, shukrona aytishmoqda, - deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Rasuljon Ibragimov .

2022-12-22 09:43:12